

## **BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA RASMLI USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*Andijon viloyati Shaxrixon tumani*

*34-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi*

*Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

***Kamolova Muhabbat***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda rasmi usullardan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, unda mantiqiy fikrlashga undaydigan zamonaviy usullar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** PISA, mantiqiy fikrlash, tadqiqot, testlar va rasmlar, integratsiya...

O‘zbekiston ta‘lim sohasida islohatlarning yangi bosqichi hisoblangan PISA dasturida ishtirokiga tayyorgarlik bosqichi ustozlardan o‘z ishlariga yangicha yondashishni talab etadi. Bu tizim mamlakatimizda yangi, bu borada ishlar endi boshlanganini nazarda tutsak, birinchi navbatda o‘qituvchilarni bu tizim bilan tanishtirish, tizim talabi va imkoniyatlarini ularga tushintirish kerak bo‘ladi. Ma‘lumki, PISA testlari rasmi shaklda tuzilgan bo‘lib, o‘quvchilarni mantiqan fikrlashga, fikr-mulohaza yuritishga undaydi. Shu maqsadda, PISA testlarini tuzish va ular bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikma hosil qilish maqsadida, asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha turli fanlarga aloqador sinov materiallardan namunalar tuzishga qaror qildik. Quyida shu materiallarni keltiramiz.

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi nima haqida?**

- A) Har kim bilim olish huquqiga egaligi haqida
- B) Har kim fermer xo‘jaligini tashkil etishi mumkinligi haqida
- C) Har kim bayram kunlari ishlamaslik huquqiga egaligi haqida
- D) Har kim kasb tanlash huquqiga ega ekanligi haqida



4. Qaysi qushni biz tinchlik qushi deb e'tirof etamiz?

- A) Qaldirg'och      B) Humo      C) Bulbul      D) Kabutar



Shuningdek, darslarda ham rasmi usullardan foydalanish o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni tez va oson shakllanishiga yordam beradi. quyida shunday usullarni keltirishni joiz topdim.


«Qalamlar quyoshi» usuli. Bunda tasviriy san'at fani bilan integratsion tizimga kirishiladi. Vatan va mustaqillik so'zlari qalamlar asosida hosil qilinadi.



“Venn diagrammasi” usuli. Bunda kapalak surati tushirilgan diagramma o'quvchilarda qiziqishni oshirishda yordam beradi.



**“Svetafor” o‘yini.** Bunda o‘quvchilarga ranglar tarqatiladi. Ular mevalarni ranglarga mos joylashtiradi.



**“Rasmlar tilga kirganda” usuli.** Bahor fasli, to‘rt fasldan biri bo‘lib qish va yoz fasllarining o‘rtasida joylashgan fasldir. Bahor fasli 3 oydan iborat: Shimoliy yarimsharda mart, aprel va maydan, janubiy yarimsharda esa sentyabr, oktyabr va noyabrdan.



Bugungi kunda matematika fanidan oʻtkazilayotgan “**Kengru**” tanlovi ham bevosita ramlar va shakllar asosida boʻlib, ular ham taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**@ Mantiqiy\_Savol**

	+		+		=	<b>30</b>
	+		+		=	<b>15</b>
	+		+		=	<b>24</b>
	+		×		=	<b>?</b>

## **BU YERDA NECHTA RAQAM KO'RYAPSIZ?**



Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbarining ko'rsatmalari va istiqbolli g'oyalardan kelib chiqib, hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimizni mantiqan fikrlaydigan, xalqaro ta'limga javob beradiga, o'z mustaqil fikriga ega etib tarbiyalash muhim va dolzarb ahamiyat kasb etgan vazifalarimizdandir. Bu ishni bamosoli niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Farberman B "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". Toshkent .2000-yil.
2. Internet saytlari: [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz) , [www.edu.uz](http://www.edu.uz)